

TARJIMASHUNOSLIK VA LINGVOKULTUROLOGIYA**Набиева Гулбахор Акбаралиевна**

Ўқитувчи,

Андижон давлат чет тиллар институти

Андижон, Ўзбекистон

Nabiyeva-1119@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13738970>

АННОТАЦИЯ. Лингвокультурология дунёнинг этнолингвистик расмини, дунё қиёфасини, лингвистик онгини, тилнинг маданий-когнитив маконининг хусусиятларини тушуниш билан боғлиқ муаммоларнинг турли томонларини ўрганadi. Ўзбек тилшунослигида ҳам халқи маданияти, урф-одати, унинг ўз тарихини лингвокультурологик жиҳатдан тадқиқ этиш кенг тадқиқот объектига айланиб улгурди.

Калит сўзлар: дунё қиёфа, мифологик мактаб, халқ маданияти, мифолог...

МАСТЕРСКИЙ ПЕРЕВОД В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "ОЗОРНИК"**Аннотация**

Лингвокультурология изучает различные аспекты проблем, связанных с пониманием этнолингвистической картины мира, мировоззрения, языкового сознания, особенностей культурно-когнитивного пространства языка. В узбекском языкознании изучение культуры, традиций и истории народа с лингвокультурологической точки зрения стало предметом обширных исследований.

Ключевые слова: мировоззрение, мифологическая школа, народная культура, мифолог...

THE SKILLS OF TRANSLATOR ON TRANSLATING "RASCAL"**Annotation**

Linguoculturology studies various aspects of the problems associated with understanding the ethnolinguistic picture of the world, worldview, linguistic consciousness, features of the cultural-cognitive space of language. In Uzbek the study of the culture, traditions and history of the people from a linguocultural point of view has become an object of extensive research.

Key words: worldview, mythological school, folk culture, mythologist

Antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi ham tilshunos olimlarning til mohiyatini har tomonlama kengroq o'rganishga bo'lgan sayi-xarakatlari natijasi bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmasining yuzaga kelishi sabablari va uning mazmun mohiyati haqida tilshunos olimlarning turli qarashlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z asosini topgan. Dunyo tilshunosligida matnning antroposentrik paradigma asosida tahlil qilish va bu tahlil ortida asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Xususan, V.fon Gumboldt, N.Xomskiy, A.A.Potebnya, V.A.Serebrennikov, S.G.Vorkachev,

I.G.Gamaley, Yu.V.Dorofeev, Yu.I.Karaulov, Ye. N.Remchukova, R.I.Pavilenis, Ye.S. Kubryakova, M.A.Shelyakin, G.I.Bogin, V.V.Vinogradov, V.A.Maslova, V.M. Alpatov, T.M. Dridze, K.F.Sedov, A.A. Vorobjitova, S. G. Vorkachev, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, E.A.Begmatov, Sh.Safarov, S.Boymirzaeva, I.Azimova kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi antroposentrizm tamoyillari asosida tadqiq etilgan.

Antropologik asoslarda til fanini yaratish g'oyasini birinchi bo'lib ifoda etgan olimlardan biri atoqli nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt bo'ldi. Uning fikricha, "tilni o'rganish o'z-o'zidan yakuniy maqsadni istisno etmaydi, balki boshqa barcha sohalar qatori inson ruhiyatining birgalikdagi intilishlarining oliy va umumiy maqsadiga, inson ruhining o'zini bilish maqsadiga va uning atrofida ko'rinadigan, yashirin bo'lgan hamma narsaga munosabatini anglashga xizmat qiladi". Vilgelm fon Gumboldt g'oyalarini qo'llab quvvatlagan yana bir tilshunos olim A.A. Potebnyaning ilmiy izlanishlarida tilning rivojlanishi haqida fikr yuritar ekan, u Gumboldt izidan borgan holda, tilning antropotsentrik xarakterini e'tirof etadi: "Haqiqatda, til faqat jamiyatda rivojlanadi, bu nafaqat inson doimo o'zi mansub bo'lgan butunlikning, yani o'z qabilasining, xalqining, insoniyatning bir qismi bo'lganligi sababli emas, balki ijtimoiy omillarning imkoniyati shartlari kabi faqat o'zaro tushunish zarurati tufayli emas, balki inson o'zini faqat o'z so'zlarining tushunarligini boshqalarga sinab ko'rish orqali anglashi uchun, deb ta'kidlaydi tilshunos olim. E.Benvenistning "tilni so'zlashuvchilar tomonidan o'zlashtirilishi" g'oyasi qiziq faktlarga asoslandi.

Lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchlarni keltirib chiqardi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat konsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniya an'analar, madaniy jarayon, madaniy ko'rsatmalar va xakozolar. Mazkur tushunchalardan eng muhimlari madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsept va madaniy konnotasiya bo'lib, ular madaniy informasiyaning til birliklari vositasida ko'rsata oladi.

Hozirgi tilshunos olimlarining ham aynan lingvokulturologiyani tarjimalar orqali olib borayotgan tadqiqi bir millat durdona asarlarining boshqa tilga o'girish va ushbu millat madaniyati, urf-odati va tildagi qaysi vositalarning qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi, xorijiy tilga qanday tarjima qilinishi, asarlarni chet tilga o'girishning eng optimal ifodalash yo'llarini aniqlash yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi

References:

1. Алефиренко Н. Лингвокультуроология: ценностно-смысловое пространство языка: Учеб. пособие – М.: Флинта: Наука.
2. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультуроология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта
3. Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – М.: Флинта: Наука
4. Aznaurova E.S Abdurakhmonova Kh.I, Translation theory and practice.
5. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Том II. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Школа «Языки русской культуры».
6. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди.
7. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. – М.: Высш. шк.